

---

---

BIRINCHI KITOBIM

---


---

Dilnoza Abduhamidova

---

# SHODLIK YURTI

*She'rlar*



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2016

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')7

A 15

uzbek  
arabchasi

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» Respublika yosh ijodkorlari seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

Mas'ul muharrir:

Farog'at Xudoyqulova

Abduhamidova, Dilnoza

A 15 Shodlik yurti [matn]: she'rlar /D. Abduhamidova. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016.  
— 32 b.

ISBN 978-9943-05-813-2

2016/114

A6124

uzbekiston MK

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')7

ISBN 978-9943-05-813-2

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016



## SHODLIKLARNI QUCHAMAN

Shodliklarni quchaman shoshib,  
Oy yubordi iliq mehrini.  
Erkalanib o'ynar shabboda,  
Anglayapman soylar sehrini.

Shodliklarni quchaman shoshib,  
His qilaman baxtimning ta'min.  
Tog'lar turar yonimda do'stdek,  
Torlik qilar kurrayi zamin.

Shodliklarni quchaman shoshib,  
Ey, do'stginam sen ham meni quch.  
Dildan chiqar kulgular toshib,  
Inja hislar bermaydi tutqich.

Shodliklarni quchaman shoshib,  
Sochim silar quyosh qo'llari.  
Meni kutib turibdi ilhaq,  
Kelajakning ezgu yo'llari.

Shodliklarni quchaman shoshib!!!





## SHAFAQ GULLARI

Qo'ying-a maysalar o'ksimang mendan,  
So'zimning ustidan chiqmadim yana.  
Kechirgin, holingdan olmadim xabar,  
Terakjon, bu gal ham qilmagin ta'na.

Mendan gina qilma qaldirg'ochginam,  
Kapalak arazing o'tdi jonimdan.  
Oxiri jahlini sezdirib mana —  
Ellar hol so'ramay o'tdi yonimdan.

Tanib-tanimayin qoldi chinorlar,  
Mehrning eng katta gunohkoriman.  
Netay, xayolimni o'g'irlab olgan —  
Shafaq gullarining xaridoriman.

## SOG'INIB KUTYAPMAN

Vaqtning qo'llaridan tutyapman mahkam,  
Bahorni kutyapman bekatda yolg'iz.  
Uning qoldirgani bir savat sog'inch —  
Qoldirgani faqat yo'lakdagi iz.

Kutyapman, qo'lidan tutib yomg'irning,  
Yo'ldoshim — sabrning ko'zyoshin artib.  
Kelaman degandi menga sabolar,  
Turnalar aytgandi kelishin qaytib.

Kutyapman, kutyapti hattoki tog'lar,  
Lolalarning kumush kulgusin qumsab.  
Muhabbat atalmish nozik tuyg'uni,  
Yashayman, ko'ngilning qatida asrab.

Sanayman soat-u soniyalarni,  
Qachon bulutlarga ovozim yetar.  
Uning yo'llarida qorlarni kechib,  
Sabrim tovonlari yorilib ketar.

Kutyapman, sog'inib bahorni yana...





## ISHONCH

Men bugun turnalar karvonin ko'rdim,  
Boshim uzra uchar pastlab galma-gal.  
Ko'nglinga kirolmas qora tutunlar,  
Va seni esladim qayta shu mahal.

Ko'zimda uyg'ondi mudragan umid,  
Qalbimning qatiga bitilgan g'azal.  
Men o'zga ko'ngilni izlaganim yo'q,  
Senla uchrashtirgan taqdiri azal.

Dunyoni to'ldirar turnalar sasi,  
Parvozga shaylangan yurakkinam ham.  
Menga havas qilar bodom gullari,  
Gullamoq davrida ayting, nimam kam?

Shodliklar raqs tushib, quvonchlar kular,  
Quchib olib birdan oy-u yilimni.  
Turnalar karvoni to'ldirib kelar —  
Otam choponidek aziz ko'nglimni.



## QARZIM BOR

Buncha beg'am bo'lma,  
bo'lma beparvo,

Ey yurak, sendan bir arzim bor.  
Qaddi dol otam-u mushfiqim —  
Onamdan eng katta qarzim bor.

Turnajon, opamsan, singlimsan,  
Eng toza tuyg'ular hadya et.  
Qoldirma, yuragim muzlarin,  
Sahrolar bag'riga olib ket.

Lolajon, bag'ringga bosgin-u,  
Erkala, tark etsin g'uborlar.  
Meni ko'p azoblar har kecha,  
Kiprikdek soqchi bu kiborlar.

Do'st bo'lib, asl do'st bo'lmagan,  
Umidim gullarin uzganlar.  
Hayhot, men emasman notavon,  
Haqqimni yeyolmas quzg'unlar.

Eslayman, o'zimdanda ortsam gar,  
Soddadil otamni, onamni.





Men yozsam yurakdan yozaman,  
She'rlarim yoritar xonamni.

Ko'nglimning eng yaqin do'stiman,  
Yulduzlar, gullardan arzim bor.  
Sog'inchdan sarg'aygan otamdan,  
Onamdan eng katta qarzim bor,  
Onamday boshimni silovchi —  
Elimdan eng katta qarzim bor.



## SANDIQ

Buvim joylab qo'ygan ellik yil burun,  
Bobom uchun tikkan ro'molchasini.  
Unga birdan chaqqon, besabr ukam  
Joylab qo'ymoq istar tumorchasini.

Kashtalar rango-rang olmaning naqshi,  
Hali sochilmagan seplar solingan.  
Dunyoning ko'zidan ko'zikmasin deb,  
Yurakdan munchoqlar tizib olingan.

Mana, otam kiygan ming yillik chopon,  
Titmang, to'zg'ib borar to'zg'igan xonam.  
O'sha eski odat — bugun nimadir  
Qarang, solib qo'ydi men uchun onam.

Oxir joylab qo'ydim men ham bir narsa,  
Joylandi bir chetda, yuragim, sirim.  
Kingadir qadrlı, kingadir aziz —  
Va sizga yoqmagani birinchi she'rim.



## VATAN

Daf'atan vujudim qamragan tuyg'u,  
Chizildi qalbimning qatiga bir-bir.  
Shamollar shivirlab uyg'otar har tong,  
Shafaqlar shivirlab qilganda asir.

Yaproqlar joniga qo'shildi jonim,  
Tuproqlar taftidan olyapman nafas.  
Bilmadim noming ne, isming nimadir,  
Muhabbatmi, mehr dilga hamnafas?

Quchog'in keng ochib chinorlar yana,  
Sochlarimni tarab o'rdilar mayda.  
Vujudim titratib yangragan nola  
Yuragim torimi, yo qamish nayda.

Endi anglaganday bo'lyapman nogoh,  
Chuqur ildizlarga bog'langan tanni.  
Meni yelkasida ko'tarib turgan —  
Bobom tog' mehrini, onam Vatanni.

## MUZEY

Momom qo'li qadoq, to'qilgan gilam,  
Turar tizilishib sovut-u qalqon.  
Ming yilkim belidan tushmagan belbog',  
Bobom egnidagi qadriyat — chakmon.

Asrlar chanqog'in qondirgan ko'za,  
Eski chanqovuzda tarix so'zlaydi.  
Yakka qamishidan yasalgan nayda —  
Qirdagi cho'ponning dardi bo'zlaydi.

Devorda osig'liq mana bu libos,  
Baxtning chizgisidan jilo olgandir.  
Naqshinkor kashtaning har bir chokiga —  
Yillarning ko'z nuri singib qolgandir.

Vaqlar-chi bog'lagan uzilmas rishta,  
Bermoqda moziyga qaytadan sayqal.  
Muzey devorining har bitta g'ishti —  
Mening yuragimga qurilgan haykal.





## RAYHON

Bo'ldi, hayron boqma turganingcha lol,  
Shamol yelpig'iching xiyol yelpib tur.  
Otam bellariga bir belbog' bo'lib,  
Rayhon, ro'molingni qarzga berib tur.

Tashvishlar quyoshi qizdirar tinmay,  
Otam qo'li qadoq, yuzlarida ter.  
Zahmat tomchilarin termoqlik uchun,  
Rayhon, ro'molingni qarzga berib tur.

Juda uzoq uchding do'stginam turna,  
Biroz otam bilan suhbat qurib tur.  
Shahardan mehrimni tugib borishga,  
Rayhon, ro'molingni qarzga berib tur.

## SHODLIK YURTI

Shafaqlar sochimni o'ring maydalab,  
Qirlar chechaklardan gulchambar taqing.  
Xo'mrayib qarama, yuragim nozik,  
Bulutjon, men uchun bir kulib boqqin.

Yellar, olib keling butun dunyoning  
Gullardan taralgan xushbo'y iforin.  
Qizg'onma qizingdan, Ona tabiat,  
To'kib soch etakka yiqqaning, boring.

Qizg'aldoq, andoza olib men uchun  
Tikkin boychechakning bargidan libos.  
Yulduzlardan qadang bejirim tugma,  
Naqshinkor ko'yлагim chizgisiga mos.

Qanotingda olib ketgin, kapalak,  
O'ylanib boqmayman tashvish ortiga.  
Endi yo'llar aniq, manzilim tayin,  
Men axir ketyapman shodlik yurtiga.





## YOSHLIK

Quyosh erkalatib uyg'otar har tong,  
Ishkomlar bag'rida uxlagan uzum.  
Keng dala qo'ynida, ketmon qo'lida,  
Bobom mehnat qilar, tinmayin bir zum.

So'qmoq yanog'iga qadalgan gullar,  
Qirlarning ko'ksiga yig'ilgan xirmon.  
Toshlar sukunatda, chigirtkalar jim,  
Kuzatar jimgina yuragim osmon.

Qo'l silkib kuzatdim har yili kuzni,  
Ro'molchaga bog'lab, sho'x beboshligim.  
Bobom yelkasiga opichlab olgan,  
Tog'lar orasida qolgan yoshligim.

## YOZMASMAN SHUNCHAKI

Arg'imchoqlar quyosh nurin uchirar,  
Kapalak ko'nglida gullar muhabbat.  
Shamollar barglardan xatlar uchirar,  
Meni shoir qilar asli tabiat.

Tog'lar qalam tutar, maysalar ilhom,  
Shabnamlar gul yuzin yuvar beminnat.  
Anhorlar orzular etganda in'om,  
Meni shoir qilar asli tabiat.

Bulbullar kuylaydi, rayhon o'ynaydi,  
Chinorlar so'ylaydi umrdan hikmat.  
Yozmasman shunchaki qog'oz qoralab,  
Asl shoir qilar asli tabiat.





*Ayni kuz avjida seni sog'indim!*  
*Halima Ahmedova*

Men seni sog'indim, sog'indim juda,  
Ketishing og'irdir, qaytmog'ing og'ir.  
Birgina so'zga zor o'tyapti umrim,  
Uni aytish qiyin, aytmog'im og'ir.

Sochimni o'radi yomg'irlar silab,  
Sening ovozingga aylangan dunyo.  
Shafqatingni tilab, mehringni tilab,  
Men xasta, telbaga aylandim go'yo.

Bizni intiq bo'lib kutgan bekatlar,  
Javobsiz qo'ng'iroq tinmas jarangi.  
Yaproqlar rangiga boqmagil hayron,  
Ularda mavjlanar ko'nglimning rangi.

Ko'zlarim ichiga chuqur joyladim,  
Umid chechaklarim ungan yo'lingni.  
Ayni yoz avjida juda sog'indim,  
Ko'nglimga aylangan oshiq ko'nglingni.




Yaproqlarning tillari chuchuk,  
Yellar bilan o'ynaydi shodon.  
Kapalakar kelib qo'nganda,  
Halinchakdek uchirdi har on.

Yaproqlarning tillari chuchuk,  
Shafaqlardan qamashdi ko'zi.  
Jilg'alarda o'ynoqi suvlar,  
Qo'shiq bo'lib yangradi so'zi.

Yaproqlarning tillari chuchuk,  
Asta o'pib uyg'otar shabnam.  
Erkalatsa ona tabiat —  
Quvonchlari qalbchasida jam.

Lek ko'ngilga tushar xavotir,  
Ajab go'zal eng nozik xilqat,  
Biror nodon o'tayotibmi —  
Daraxtidan uzmasin faqat.

Yaproqlarning tillari chuchuk!





## ENDI SOG'INMAYMAN

Million yildan beri umidim so'nmas,  
Million yildan beri tunlarim bedor,  
Meni tinch qo'ymagan, hamon tinch qo'ymas,  
«Endi sog'inmayman», – deguvchi qaror.

Ba'zan yuragimga og'irlik qilar,  
Shivir-shivirlar-u, pichir-pichirlar.  
Ming bir tomirimni bo'rondek tilar,  
Odatiy uzrlar, unsiz kechirlar.

Kutaman sabrni bosib bag'rimga,  
Vaqtning qo'llaridan mahkamroq tutib.  
Teraklar yetadi oyning qadriga,  
Meningdek malakning yo'lini kutib.

Million yildan beri yonma-yon, bedor,  
G'ururni yengmoqni kutib turibmiz.  
Siz jimsiz, men jimman, ko'zlar yashirgan,  
So'zsiz muhabbat deb tirik yuribmiz.



Necha yilki qo'lingga yetib,  
Borolmaydi ovvora xatlar.  
Sening bir bor kelishing kutib,  
Yo'l qaraydi yangi bekatlar.

Chorasizlik yig'latdi ko'nglim,  
Oqqushlarga aylangim keldi.  
Va chorasiz, sog'inganimni  
Faqatgina bulutlar bildi.

Tushunsa-da osmon holimga,  
Majnuntollar qoldi o'ylanib.  
Nahot faqat xayollarimda,  
Qolaversam senga bog'lanib.

Shafaqlardek yonmoqda yurak,  
Kutish kerak bo'lsa kutaman.  
Ne bo'lsa ham bilgin azizim,  
Men baribir baxtga yetaman!..



## BAXTNI SOG'INDIM

Sabolar tortqilar asta ro'molim,  
Mag'rur tog' nigohi kuzatmoqda jim.  
Bahorning qo'llari erkalab turgan,  
Bodom shoxidagi baxtni sog'indim.

Kamalak ranglari jilolangan payt,  
Men xayol ko'chasin so'ramay kezdim.  
Shafaq nurlaridan taqqan jamalak,  
Bodom shoxidagi baxtni sog'indim.

Kakliklar kuylagan qirlar bag'rida,  
Lolalar yuzida mehrni ko'rdim.  
Yulduzlar raqs tushgan har butog'ida,  
Bodom shoxidagi baxtni sog'indim.

Maysalar ifori tutar olamni,  
So'qmoqlarga chimdan bitilgan baytim.  
Dardga chalintirib quvnoq qalamni,  
Bodom shoxidagi baxtni sog'indim.



Sokin oqayotgan daryoga boqib,  
Endi sog'inmaymiz dedik pichirlab.  
Biroq tinch qo'ymadi sevgin, sev, deya,  
Qalblar qo'ng'irog'i tinmay jaranglab.

Go'yo men befarqman, go'yo sen befarq,  
Ammo yonayapti yuraklarimiz.  
Har kun soniyalar jim tinglamoqda,  
Ishq kuyin chertganda tilaklarimiz.

Oyda ko'rayapman bugun aksingni,  
Ko'zlarim sog'inchdan so'lib boryapti.  
Olislarga ketib, olma qasdingni,  
Shundog'am bu ko'ngil to'lib boryapti.

«Hammasi tugadi, hammasi o'tdi», —  
Demagin ozorda o'rtab jonimni.  
Kelaqol, baribir aytmog'im kerak,  
Seni hammadan ko'p sog'inganimni.





## YO'QOLGAN SHE'RIM

Juda zo'r she'r bitdim, qofiyalar mo'l,  
Turoqlar, bo'g'inlar, joy-joyiga mos.  
O'qidim, o'zimcha ochilganча gul,  
Go'zal ash'or yozgan shoirlarga mos.

O'qidim, takror va takror, baralla,  
O'zimni qutladim, tabriklab qo'ydim.  
Olib kundalikning bir burchagiga,  
Muhim sanalardek muhrlab qo'ydim.

Xo'p ajoyib bo'ldi, xo'p go'zal bo'ldi,  
Oshkor bo'ldi bari, qolmadi sirim.  
Muhabbatga to'la bir g'azal bo'ldi,  
Yozilmasdan turib yo'qolgan she'rim!..

## TUROLMASAM SO'ZIMDA

Hech qachon sevmayman, sevmayman,  
Dedim men o'zimcha o'zimga.  
Ko'zingiz qa'riga cho'kdim-u,  
Men tura olmadim so'zimda.

Bekatlar tutashdi, nafaslar,  
Aylandi eng shirin lahzaga.  
Yurakning isyonkor shashtidan,  
Kelgandi dunyolar larzaga.

Quchog'im keng ochsam, osmonlar  
Sig'adi o'n sakkiz yoshimga.  
Siz paydo bo'ldingiz yo'linda,  
Savdolar tushdi yosh boshimga.

Hech qachon sevmayman, sevmayman,  
Dedim men o'zimcha o'zimga.  
Siz hayron bo'lmangiz, agarda  
Men tura olmasam so'zimda.





Vaqtim pul, pulim vaqt,  
Yillar o'tar betartib.  
Fursat topib ey, dunyo,  
Qo'y,  
    ko'nqlimni bir artib.

Men o'zimdand ortmayman,  
Pardoz, andoz, tarozi.  
Singib ketgan yurakka  
Soniylalar ovozi.

Men tinimsiz chopypapman,  
O'zib ketdim yeldan ham.  
Orzularim bir osmon,  
Yashamayman eldan kam.

Shivirlyaydi shamollar,  
U yon, bu yon boq, deydi.  
Ko'zingni och, ko'nqlingga  
Dil nurini yoq, deydi.

Mening esa pulim vaqt,  
Hech ortimga qaytmayman.







## ONA

Qarang gullabdi-ya yurakda sog'inch,  
Sershovqin shaharda diqqinafasman.  
Deysiz, o'qiyapti qizim shaharda,  
Kimlar uchun nafrat yoki havasman.

Dimog'imga urdi yolg'onning hidi,  
Boraman derdim-ku, beparvo turib.  
Sizni sog'inganim angladim bugun —  
Sog'inch haykalining yonida turib.

Mendan oldin borib ko'rib qaytmoqda  
Mehribon onasin qushlar galasi.  
Eng uyg'oq hislarim oqizib ketgan  
Sog'inchlarning tinmay yoqqan jalasi.

Hamon kelmadi deb, o'rtanmang ona,  
Meni sizga eltar qishning ertagi.  
Diydorlashsak yillar qilar tantana,  
Yurakda tug'ilar ishonch ertangi.



Men buncha sog'inib qoldim qishloqni,  
O'zing ayt, ey sodda qishloqi do'stim.  
Sershovqin shaharning shovqini bekor,  
To'lmayin qolyapti kamlar-u ko'stim.

Ketsammi?  
Qolsammi?  
Bilmayman axir,  
Tishlasam og'riydi qay bir barmog'im.  
Shaharda qolsam-u to'g'rimi aytgin,  
Sovuq betonlarga dilim yormog'im?

Kengliklar «kel», — deya chaqirar har on,  
Anhorlar chorlaydi o'z quchog'iga.  
Men borib she'r aytgim kelyapti, ona,  
O't qalab qo'ygansiz, dil o'chog'iga.

Ketsam, shahar qolar ko'nglmndan yiroq,  
Ketmasam, qishloqning sog'inchi ortiq.  
Bu shahar-qishloqning yo'llari aro,  
She'riyat, ol senga yuragim tortiq.





## KATTA ODAMLAR

Kutadi jimgina yo'lga ko'z tikib,  
Duo qilar har bir qadamda.  
O'z-o'ziga pichirlar ona —  
«Bolaginam katta odam-da».

Ota olib qo'lga ketmonin,  
Yurar har kun tashvish-u g'amda.  
Shahar ketib befarq bo'lsa ham  
«Bolaginam katta odam-da».

Rizqi kelar qishlog'idan mo'l,  
Olma, uzum yetilgan damda.  
Issiq nonla tugib mehrini,  
«Bolaginam katta odam-da».

Katta shahar, katta ko'chalar,  
To'lavermas dunyoda kamlar.  
Siz ham goh-goh ularni dildan,  
Yo'qlab qo'ying «Katta odamlar».



Osmon nima? Osmon bir qadam,  
Olib qo'ydim ijaraga uy.  
Yuksaklarga bo'y cho'zsin sevgi,  
Ishq atalmish obi hayot quy.

Erimoqda muzliklar shundoq,  
Muhabbatning olov taftidan.  
To'yib-to'yib ichyapman sharob,  
Kapalakning nozik kaftidan.

Kuzgi bog'lar bag'ridan turib,  
Chaling oshiq visol kuyini.  
Nozikkina yuragim uchun  
Olib qo'ydim ko'ngil uyini.





*Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim.*

**MIRTEMIR**

Qani chal, balandroq, chalgin, chalaver,  
Ketsin yuragimning joni uzilib.

Sen kuygan oshiqsan, men bir devona,  
Sevgimiz gullari ketdi ezilib.

Chalgin, chalavergin, bundanda baland,  
Qulog'im eshitmas, tinglar yuragim.  
Sog'inchning yuklari og'irmi deyman,  
Egilib boryapti axir kuragim.

Ba'zan, yo'lga chiqsak tutashmay yo'llar,  
Kutsak, ko'chalardan izlar o'tmadi.  
Yor tutar gullarga yetmadi qo'llar,  
Muhabbat bo'yiga bo'ylar yetmadi.

Qani chal, balandroq, chalgin, chalaver,  
Bizning sevgi xato, biz shuni bildik.  
Har kuyning sehridan yonsin dillari,  
Endi ular sevsin, biz sevib bo'ldik.

## MUNDARIJA

Shodliklarni quchaman.....	3
Shafaq gullari .....	4
Sog'inib ketyapman.....	5
Ishonch .....	6
Qarzim bor.....	7
Sandiq .....	9
Vatan .....	10
Muzey .....	11
Rayhon.....	12
Shodlik yurti.....	13
Yoshlik.....	14
Yozmasman shunchaki.....	15
«Men seni sog'indim...».....	16
«Yaproqlarning...».....	17
Endi sog'inmayman.....	18
Necha yilki .....	19
Baxtni sog'indim.....	20
Sokin oqayotgan .....	21
Yo'qolgan she'rim.....	22
Turolmasam so'zimda .....	23
Vaqtim pul.....	24
Ona .....	26
Men buncha sog'inib qoldim qishloqni.....	27
Katta odamlar .....	28
«Osmon nima?...».....	29
«Qani, chal, balandroq ...».....	30

4000 e

Adabiy-badiiy nashr

BIRINCHI KITOBIM

Dilnoza Abduhamidova

**SHODLIK YURTI**

*She'rlar*

*Muharrir Umida Rajabova*

*Badiiy muharrir Jahongir Badalov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhih Umida Rajabova*

*Matn teruvchi Gulchehra Azizova*



Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2016-yil 15-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 60x90<sup>1/32</sup>. Ofset qog'ozi. BalticaUz gamiturası. Shartli bosma tabog'i 1,0. Nashr tabog'i 0,98. Adadi 20000 nusxa. Shartnoma № 68 – 2016. Buyurtma № 370.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200, Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.